MADANIYAT VA SAN’AT TA’LIMINING TIZIMLI TAHLILI

Kamoliddin Elmirov,

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi

Madaniyat ta’limi markazi bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasi ta’lim tizimining amaldagi holati tahlil qilingan. Tahlil bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyatini qamrab oladi. Shuningdek, madaniyat va san’at sohasi ta’lim tizimida o‘quvchilar kontingenti, pedagog kadrlar salohiyati va ta’limning ijtimoiy o‘zgarishlarda rolini oshirishdagi ahamiyati haqida so‘z ketadi.

Аннотация: В статье проанализировано текущее состояние системы образования в сфере культуры и искусства в Республике Узбекистан. Анализ охватывает деятельность детских музыкалных и художественных школ. Кроме того, рассматриваются вопросы контингента обучающихся, кадрового потенциала педагогических работников и значения системы образования в сфере культуры и искусства в повышении её роли в процессах социалных преобразований.

Abstract: The article analyzes the current state of the education system in the field of culture and arts in the Republic of Uzbekistan. The analysis covers the activities of children’s music and art schools. In addition, the article examines issues related to student enrollment, the professional capacity of teaching staff, and the significance of the culture and arts education system in enhancing its role in processes of social transformation.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, tizimli tahlil, madaniyat va san’at ta’limi, bolalar musiqa va san’at maktablari.

Ключевые слова: Образование, системный анализ, образование в сфере культуры и искусства, детские музыкалные и художественные школы.

Key words: Education, system analysis, education in the field of culture and art, children’s music and art schools.

Kirish. Madaniyat va san’at masalasi mantiqiy va tanqidiy tafakkur ta’limida tizimli tahlil, tizimli yondashuv tarzi bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun ham

bugungi kundagi dolzarb masalalari sarasiga kiradi. Mazkur maqolaning maqsadi — bolalar musiqa va san'at maktablarining bugungu kundagi holatini ijtimoiy tahlil qilishdan iborat. Bugun ta'limsiz taraqqiyotga erishish juda mushkul. So'ngi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida salmoqli natijalarga erishildi. Jumladan, maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasining 27,7% dan 71,8% gacha, oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasining 9% dan 42% gacha, maktablar sonining 9 719 dan 10 522 gacha va oliy ta'lim muassasalari sonining 77 dan 211 gacha ko'payishini keltirish mumkin. [1]

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida 10 522 ta umumiy o'rta maktablari faoliyat olib borib, ularda 6 476 091 nafar o'quvchi tahsil oladi. [2] Shuningdek, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida 221 ta davlat, nodavlar va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari faoliyat olib boradi. Ularda 1 637 350 nafar talaba tahsil oladi. [3].

Madaniyat va san'at ta'limida (Madaniyat vazirligi tizimidagi) ta'lim tashkilotlari soni 366 tani tashkil etadi. Shundan, 9 ta oliy ta'lim tashkiloti (5 ta oliy ta'lim tashkilotlari va ularning 3 ta filiallari, 1 ta xorijiy oliy ta'lim tashkiloti filiali), 2 ta malaka oshirish markazi, 29 ta ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktab hamda maktab-internatlari, 326 ta bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyat olib boradi. [4] Shunga ko'ra, madaniyat va san'at ta'limi ham yaxlit bir tizim sifatida tizimli tahlil obyekti bo'la oladi. Tizim–bu o'zaro bog'liq va tartiblashtirilgan elementlardan tashkil topgan, yagona maqsad sari intiluvchi obyekt yoki obyektlar yig'indisi.

Ta'lim jarayoniga tizimli yondashganda, asosiy urg'u o'rganilayotgan obyektga, ya'ni ma'lum bir ta'lim turiga masalan, qo'shimcha ta'lim (Bolalar musiqa va san'at maktablari) qaratiladi va uni tashqi olam va atrof-muhit bilan aloqadorligi, tizim sifatida tashqaridan ma'lumotlarni qabul qilishi va o'z navbatida tashqi olamga o'zidan axborotlarni chiqarishi kabi xususiyatlari tahlil etiladi.

Mazkur maqolada madaniyat va san'at ta'limi tizimini o'rganishda tizimli yondashuv asosiy metodologik asos sifatida tanlandi. Tizimli yondashuv ta'lim tizimini o'zaro bog'liq

elementlardan iborat yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida bolalar musiqa va san’at maktablari ochiq ijtimoiy tizim sifatida qaralib, ularning tashqi muhit (aholi ehtiyojlari, demografik omillar va boshqalar) bilan o‘zaro aloqasi tahlil qilindi.

Tizimli tahlil doirasida quyidagi asosiy komponentlar ajratib ko‘rsatildi:

– kirish omillari (o‘quvchilar kontingenti, pedagog kadrlar, moddiy-texnik baza);

– ta’lim jarayoni (ta’lim yo‘nalishlari, sinflar bo‘yicha);

– chiqish natijalari (ta’limning uzluksizligi, o‘quvchilar saqlanib qolish darajasi, kadrlar salohiyati).

Olingan ma’lumotlar asosida mavjud holatga tanqidiy baho berildi va madaniyat hamda san’at ta’limi tizimini takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.


Quyida Madaniyat ta’limi markazi tizimidagi bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyati tahlilini ko‘rib chiqiladi:

Respublika bo‘yicha bolalar musiqa va san’at maktablari soni 326 tani tashkil etadi. Ushbu muassasalarning umumiy quvvati 53 027 o‘rinni tashkil qilgan bo‘lsa-da, amalda 90 033 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda. Natijada o‘rtacha yuklama koeffitsienti 1,7 barobarga yetgan. Bu nima degani? Agar maktab 100 o‘quvchiga mo‘ljallangan bo‘lsa, u yerda 170 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda degani, madaniyat va san’at ta’limiga talab yuqori, lekin mavjud quvvat yetarli emas degani.

Hududiy tahlil natijalariga ko‘ra, Toshkent viloyati 1.7 koeffitsiyent (11304 nafar), Samarqand viloyati 1.9 koeffitsiyent (9953 nafar), Toshkent shahar 1.7 koeffitsiyent (8818 nafar) o‘quvchilar soni yuqori bo‘lib, bu hududlarda madaniyat va san’at ta’limiga bo‘lgan ijtimoiy talab kuchli ekanini anglatadi. Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida esa qamrov pastligi kuzatilib, hududlar o‘rtasida 3 barobardan ortiq tafovut mavjud. Mazkur nomutanosiblik aholining demografik tarkibi bilan bir qatorda, mazkur hududlarda maktab sonining kamligi, maktablar tarmog‘ining joylashuvi, pedagog kadrlar salohiyati bilan ham izohlanishi mumkin.

Sinflar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatadiki, 1-sinfda tahsil olayotgan o‘quvchilar soni 28 492 nafarni tashkil etsa, 5-sinfga kelib bu ko‘rsatkich 10 472 nafargacha (63.2 foizga) kamayadi, 7-

sinflarda esa jami o‘quvchilar ulushi atigi 1371 nafarni (4.8 foizni) tashkil etadi. (Bu 100 foiz o‘quvchining 5 foizi o‘qishni tamomlaydi degani.)



Bu holat bolalar musiqa va san’at maktablarida ta’lim jarayonining uzluksizligi yetarli darajada ta’minlanmayotganini, yuqori sinflarda o‘qishni tark etish holatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur holat ta’lim jarayonida yuklama va talablarni bosqichma-bosqich ortib borishi, ta’limning to‘lov asosida tashkil etilishi moliyaviy imkoniyatlarga bog‘liqligi hamda pedagog kadrlar etishmovchiligi va ularning malaka darajasi pastligi bilan izohlanishi mumkin.

Sinf	O‘quvchi soni	Foiz (%)
1	28 492	100
5	10 472	36.8
7	1 371	4.8

Yo‘nalishlar kesimida eng yuqori qamrov tasviriy san’at (16 133 nafar), xalq cholg‘ulari (15 460 nafar), fortepiano (12 434 nafar) va xoreografiya (11 446 nafar) yo‘nalishlariga to‘g‘ri keladi.

Shu bilan birga, baxshichilik (2060 nafar), akademik xonandalik (1698 nafar), estrada xonandaligi (3173 nafar) va damli-zarbli cholg‘ular (2105 nafar) yo‘nalishlarida o‘quvchilar soni nisbatan kam bo‘lib, ushbu yo‘nalishlar asosan ayrim hududlarda jamlangan. Bu yo‘nalishlarni saqlab qolish va yanada rivojlantirish maqsadida maxsus qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish va targ‘ibot ishlarini kuchaytirish talab etiladi.

Bolalar musiqa va san’at maktablarida jami 12 802 nafar pedagog xodim faoliyat yuritmoqda. Shundan 7210 nafari (56 foizi) oliy ma’lumotli, 5592 nafari (44 foizi) esa o‘rta maxsus ma’lumotga ega. Hududlar kesimida oliy ma’lumotli pedagoglar ulushi keskin farqlanadi. Andijon viloyatida ushbu ko‘rsatkich 73 foizni tashkil etsa, Toshkent viloyati, Navoiy va Namangan viloyatlarida 45–49 foiz atrofida qolmoqda.

Toifalar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatadiki, pedagoglarning 53 foizi oliy

ma’lumotga ega bo‘lsa-da, malaka toifasiga ega emas. Bu holat ta’lim sifati va metodik rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, madaniyat va san’at ta’limi tizimida boshlang‘ich bosqichda qamrov yuqori bo‘lsa-da, ta’limning uzluksizligi, yuqori sinflarda o‘quvchilar saqlanib qolish darajasi pastligi, kadrlar sifati, infratuzilma va ilmiy salohiyat masalalarida tizimli muammolar mavjud.

Mazkur holatlarni bartaraf etish uchun hududiy nomutanosiblikni kamaytirish, pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini kuchaytirish, moddiy-texnik bazani bosqichma-bosqich yangilash hamda ayrim yo‘nalishlarni qo‘llab-quvvatlash zarur. Shunga muvofiq, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Pedagoglar uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi qamrovini kengaytirish va pedagoglarning 53 foizi oliy ma’lumotga ega bo‘lsa-da, malaka toifasiga ega emasligidan kelib chiqib, attestatsiya jarayonlariga keng jalb etish;

- 2027/2028 o‘quv yiligacha oliy ma’lumotli pedagoglar ulushini 70% ga yetkazish;

- Yuqori sinf o‘quvchilarini saqlab qolish darajasini 30% ga oshirish;

- Qamrovi kam ta’lim yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlov asosida yanada rivojlantirish;

- Madaniyat va san’at ta’limiga talab yuqoriligini inobatga olib, yangi Bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyatini tashkil etish va faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://strategy.uz/index.php?news=1840

2. https://api-portal.gov.uz/uploads/9/2025/11/12/35a57f0c-97b0-a7eb-9114-b88991d649a3_media_.pdf

3. https://stat.edu.uz/tables

4. “Madaniyat ta’limi markazi” davlat muassasasi statistik ma’lumotlari.